

# O'ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403343>

Qarshiyeva Marjona Alisher qizi  
DMXM-5 guruh, 2-kurs magistranti  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
Xidirov Nodir G'iyosaliyevich  
“Moliya” kafedrasi dotsenti, Ph.D  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mamlakatimizda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalangan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligi yoritib berilgan. Shuningdek, ulardan foydalanishni yanada samarali tashkil etish uchun qaysi yo'nalishlarga e'tibor qaratish kerakligimiz bo'yicha tavsiyalar va xulosalar berilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llash borasida amaliy takliflar keltirib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** muqobil energiya, “yashil” iqtisodiyot, inson kapitali, atrof-muhit muhofazasi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, tabiiy resurslar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda muqobil energiya tarmog'ini rivojlantirish, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar uchun imkoniyatlar yaratib berish, xorijiy investitsiyalar jalb etish bugungi kun iqtisodiyoti oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida “Yashil iqtisodiyot”ning o'rnini yuqori baholash mumkin. Chunki, mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish masalasining muhim ekanligi tabiiy resurs potensialini saqlash, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish va shu bilan bir qatorda yuqori o'sish sur'atlariga erishish lozimligi bilan xarakterlanadi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning yuqori tabiiy resurs va inson kapitaliga ega ekanligini unda “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekistonda yoqilg'i-energetika resurslarining hozirgi hajmda iste'mol qilinishi davom etsa, ular mamlakatning yoqilg'i-energetikaga bo'lgan ehtiyojini atigi 20-30 yil davomida ta'minlab berishi bashorat qilinganligi sababli ham iqtisodiyotni yashillashtirish jarayonini ushbu sohaga keng targ'ib etish, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi, alternativ energiya manbalaridan foydalanish

darajasini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, BMTning “Atrof-muhit muhofazasi va taraqqiyot xalqaro komissiyasi” hisobotida “Kelajak rivojlanishi, ravnaqi shunday energiyalardan foydalanish formasi, ya’ni, atrof muhit holatiga zarar yetkazmaydigan, xavfsiz, tiklanadigan, kafolatlangan, doimiy o’sib, tiklanib boruvchi va foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan energiyalarga bog‘liq bo‘lib qoladi”, deya qayd etilganligini e’tirof etish joiz. O‘zbekistonning quyosh energiyasi bo‘yicha yalpi salohiyati 50973 mln. tonna neft ekvivalentiga (mln.t.n.e.) teng bo‘lsa, shamol energiyasining yalpi salohiyati 2,2 mln.t.n.e. deb baholanadi. Bu sohada yurtimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin [1]:

- O‘zbekistonda Markaziy Osiyoda yagona ilmiy-eksperimental markaz — Fanlar akademiyasining “Fizika-Quyosh” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil qilingan bo‘lib, uning tadqiqotlari natijalari jahon miqyosida e’tirof etildi;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydag‘i “2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori ijrosi doirasida “Eko-energiya” ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Qashqadaryo viloyatidagi Kasbi, Kitob va Shahrisabz tumanlarining chekka qishloqlari – Komilon, Yuqori Maymanoq, Varganzadagi qishloq ta’lim va tibbiyot muassasalariga quyosh batareyalari o‘rnatildi [2];

- 2014-yilda “O‘zbekenergo” kompaniyasi tomonidan Janubiy Koreya fotoelektr sanoati uyushmasi bilan hamkorlikda Namangan viloyatining Pop tumanida sinov tariqasida quvvati 130 kVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushdi [3];

- 2016-yilning aprel oyining boshida Buxoroda MDHda yagona bo‘lgan 1,2 mVt quvvatiga ega ko‘chma, avtonom quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi;

- Samarqand viloyatida quvvati 100 kVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilmoqda;

- O‘zbekistonda 2030-yilgacha issiqlik-energiya balansining konsepsiyasini shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, mamlakatning umumiyligi energiya balansida tiklanuvchan energiya resurslari, xususan gidroenergentika,

quyosh va shamol generatsiyasining ulushini 10 foizdan 20 foizgacha, ko‘mir hissasini esa, 5 dan 15 foizgacha oshirish, shu bilan birga gaz generatsiyasi ulushini 85 dan 65 foizga pasaytirish nazarda tutilgan [4].

Ulardan foydalanishni yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish muhim sanaladi:

- qishloq joylarida fotoelektrik qayta ishlovchi vositalarni o‘rnatishni kengaytirish;
- energetika sohasida yirik fotoelektrik stansiyalarni barpo etish;
- issiqlik yig‘ish tizimlariga quyosh energiyasidan foydalanish vositalarini joylashtirish va boshqalar.

Natijada esa, qayta tiklanuvchi energiya sohasida yashillashtirish jarayonini olib borish 2050-yilga kelib umumiy energiya ishlab chiqarish hajmida uglevedorodlar hajmini 50 foizgacha qisqartirish imkonini yaratishi mumkin [1].

Transport sohasida yashillashtirishning yo‘qligi, ya’ni mamlakatda elektromobillar juda kam ulushda mavjudligi va asosiy aholida mavjud transport vositalari an’anaviy yoqilg‘i asosida harakatlanadiganli sababli bugungi kunda ushbu sohada \$ 722,9 mln. yo‘qotilmoqda. Shu sababli ham, O‘zbekistonda transport vositalarining ekologik xavfsizligini oshirish masalasi ham iqtisodiyotni innovatsion modernizatsiya qilishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar qatoriga transport vositalari tomonidan ishlataladigan yoqilg‘ining energetik samarasini oshirish, yoqilg‘ining “yashil” alternativ turlaridan foydalanish, “yashil” elektrodvigitellardan foydalanishni kiritishimiz mumkin. Quyosh batareyalari orqali harakatlanuvchi transport vositalarining keng joriy qilinishi atrof muhitga chiqarilayotgan turli xildagi chiqindilar hajmining kamayishi, shaharlar ekotizimining yaxshilanishiga olib keladi.

“Yashil iqtisodiyot”ning keng joriy qilinishi uy-kommunal xo‘jaligi tizimining modernizatsiya qilinishini talab etadi. Buning uchun passiv-quyosh isitish texnologiyasini joriy qilish, binolarda qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish, issitish tizimini isloh qilish kabi vazifalar amalga

oshirilishi kerak. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan islohotlar yurtimizda 2020-yilga kelib 15 ming, 2050-yilda esa 120 ming yangi ish o‘rinlarini tashkil etish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda xo‘jalik chiqindilarini qayta ishlash sanoati keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, buning natijasida qattiq xo‘jalik chiqindilarining hajmi, atrof-muhitga zarari kamaytiriladi. O‘zbekistonda bugungi kunga kelib, mavjud poligonlarda 370 mln.m<sup>3</sup> dan ortiq chiqindi to‘plangan. Ularni qayta ishlashga jalg etilmaganligi sababli, chiqindilarni saqlash va utilizatsiya qilish uchun sarf etilayotgan mablag‘lar iqtisodiyotga 611,6 mln. AQSH dollariga teng bo‘lgan umumiy zarar keltirmoqda. Bu muammoni hal etishning usuli chiqindilarni qayta ishlashga moslashgan zavodlarni qurish, aholining chiqindi mahsulotlarini tashlash madaniyatini rivojlantirish (chiqindilarni turiga qarab ajratish), zarasizlantrishning imkoni yo‘q bo‘lgan turli xildagi chiqindilarni qabul qiluvchi shaxobchalarini joriy etish, oziq-ovqat va xo‘jalik mahsulotlari iste’molida isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Prezidentimizning “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta’minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish yo‘lidagi muhim tarixiy hujjat, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qarorda 2023-yilda umumiy quvvati 4 300 mVt bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishga tushirish orqali qo‘srimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va buning natijasida 4,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish belgilanmoqda. Ushbu maqsadlarga jami 15,4 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larni yo‘naltirish ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, 2023-yilda 20 mingta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida hamda kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish, 11 ming nafar tadbirkorning bino va inshootlarida quyosh panellari o‘rnatish hamda kichik fotoelektr stansiyalarini barpo etish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, 2023-

yil 1-apreldan boshlab qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga mol-mulk solig‘i, yer solig‘i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etilishi bo‘yicha imtiyozlar berilmoqda. Imtiyozlardan yana biri 2023-yil 1-martdan boshlab yagona elektr energetika tizimiga ularish uchun berilgan texnik shartlarda ko‘rsatilgan quvvatdan yuqori bo‘lmagan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashda qo‘srimcha texnik shart olish talab etilmasligidir [5].

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Xususan, energiyani saqlash qurilmalari orasida samarali hisoblanuvchi litiy-ion batareyalarining narxi xalqaro miqyosda maqbul qiymatga tushib boryapti. Xalqaro tadqiqot markazlari kelgusi 5 yilda bu turdagি batareyalar narxi o‘rtacha 30 foizga arzonlashishini taxmin qilmoqda. Buning natijasida O‘zbekistonda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan energiyani boshqarish, saqlash hamda yagona energetika tizimi barqarorligini ta’minalash imkonи paydo bo‘ladi. “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlatirish uchun yana bir necha vazifalar amalaga oshirilmoqda. Ya’ni tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan savdo va servis korxonalariga quyosh panellari uchun kredit to‘lovlaring 4 foizi qoplab beriladi va bu o‘z o‘rnida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun yashil energiyaga o‘tish o‘tish uchun rag‘bat sifatida xizmat qiladi.

Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi O‘zbekistonda birinchi shamol elektr stansiyasini qurishni boshladi. Mazkur stansiya Navoiy viloyatining Zarafshon tumanida joylashadi. “Masdar” kompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirligi o‘rtasida qurilayotgan elektr stansiyasining loyihibiy quvvatini 500 mVtdan 1,5 gVtgacha oshirish bo‘yicha bitim imzolandi. Dastlab 600 mln. AQSH dollariga baholangan loyiha kengaytirilgandan so‘ng qariyb 1,8 mlrd. AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishi kutilmoqda. Ma’lumotga ko‘ra, loyiha quvvatining 1,5 gVtga oshirilishi

kelgusida O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan shamol elektr energiyasi miqdorini 3 gVtga yetkazish va muqobil energiya manbalarining mamlakat umumiy energiya balansidagi ulushini 26 foizga yetkazish maqsadlariga erishishga imkon beradi [6].

Zarafshon tumanidagi mazkur shamol elektr stansiyasi 2024-yilning oxirigacha tijoriy foydalanishga topshirilishi rejalashtirilmoqda. 500 MVt quvvatga ega loyiha 500 mingta xonadonga yetarli hajmda elektr energiyani ishlab chiqarishni va atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid chiqindilarini yiliga 1,1 mln tonnaga kamaytirishni ta’minlab berishi ko‘zda tutilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, “Yashil iqtisodiyot” mavjud resurslardan tejamkorona foydalangan holda har tomonlama zararsiz ishlab chiqarish jarayonini yo‘lga qo‘yish hamda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tizimdir. “Yashil iqtisodiyot” nazariyasining bugungi kunda bu qadar keng quloch ochishining asosiy sababi, bu mavjud ekologik muammolarning global ahamiyat kasb etayotgani hamda “Yashil iqtisodiyot” taklif etayotgan tovar va xizmatlarning aholi ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilganligida deyish mumkin. O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ni keng joriy etish mamlakat tabiiy resurslaridan yanada oqilona foydalanish, turli xil ekologik muammolarni bartaraf etish, aholining eko-savodxonligini oshirgan holda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga sharoit yaratadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bu yo‘nalishni shakllantirish va rivojlantirish uchun yurtimizda barcha imkoniyat va sharoitlar mavjuddir. Bu yo‘nalishda esa quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyot” modelini (strategik dasturini) tuzish va amaliyatga keng joriy etish;
- ushbu jarayonning huquqiy-normativ bazasini shakllantirish;
- islohotlarni izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ularni yashillashtirishga ichki va tashqi investitsiyalarni keng jalb etish;
- aholining eko-madaniyatini oshirish;
- davlat va jamiyat manfaatlarini mushtarakligini inobatga olgan holda, ushbu sohani rivojlantirishda ularninig o‘zaro hamkorligi ta’minlash;

- “Yashil iqtisodiyot” ni shakllantirish borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, oqilona iqtisodiy siyosat olib borayotgan har bir mamlakat uchun rivojlanishning innovatsion bosqichiga o‘tishda iqtisodiyotni yashillashtirish jarayoni muqarrar vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.
3. “Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo: suv, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi sohasidagi hamkorlik” (WECOOP). <https://wecoop.eu/ru/glossary/green-deal/>;
4. A guidebook to the Green Economy, Division for Sustainable Development, UNDESA, August 2012.
5. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz) / Республикада қайта тикланувчи энергия манбаларини тадбиқ қилиш тажриба ва истиқболлари
6. <http://www.unep.org/greenfinancing> - Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturi rasmiy sayti
7. <https://imv.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti
8. Xidirov N. G. et al. Yashil qimmatli qog‘ozlar: aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish katalizatori sifatida //World scientific research journal. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 113-121.
9. Qarshiyeva M. A. et al. O‘zbekiston “Yashil” iqtisodiyot sari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 984-990.